

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA
KIRUVCHILAR UCHUN**

SAVOLLAR KITOBI

ABITURIYENT: _____
F.I.O. Imzo

ABITURIYENT DIQQATIGA!

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan boyicha 36 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan va imzosi qo'yilmagan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.

Kitob tipi: 32

FANLAR:

Blok 1: Ona tili va adabiyot

Blok 2: Biologiya

Blok 3: Kimyo

Savollar kitobi raqami: **1701319**

Toshkent – 2017

ONA TILI VA ADABIYOT

1. Qaysi gapda yasama so'zni tobelantirgan ibora ishtirok etgan?
A) *Haqiqiy vatanparvarlar jon kuydirib mehnat qilishdan aslo charchamaydilar.*
B) *Vatanga bo'lgan muhabbatim meni xorijliklar yutug'idan ko'z yumishga majbuv qilmaydi.*
C) *Vatanni ko'z qorachig'iday asrashni ma'rifatli millatlardan o'rganish kerak.*
D) *O'z Vatanga dog' tushirish uni sotish degan so'z.*
2. Dimariq hali hech him va hech nima loyqalatib ulgurmagani uchun tip-tiniq, mayin oqmoqda.
Ushbu gapda mustaqil so'z turkumlariga oid so'zlarning nechta ismlar guruhiga mansub emas?
A) 2 tasi B) 3 tasi C) 4 tasi D) 5 tasi
3. Qaysi gapda yasama so'zni tobelantirgan ibora ishtirok etgan?
A) *Haqiqiy vatanparvarlar jon kuydirib mehnat qilishdan aslo charchamaydilar.*
B) *Vatanga bo'lgan muhabbatim meni xorijliklar yutug'idan ko'z yumishga majbuv qilmaydi.*
C) *O'z vatanga dog' tushirish uni sotish degan so'z.*
D) *Vatanni ko'z qorachig'iday asrashni ma'rifatli millatlardan o'rganish kerak.*
4. Qaysi gapda uch xil gap bo'lari fonetik o'zgarish asosida yozilgan?
A) *Tergovchilar bu qoidabuzarlik ayblanuvchining o'rnatilgan tartibni yaxshi anglamagani sababli yuzaga kelganini hisobga oldilar.*
B) *Beshafqat shamol sovuqdan qaltirayotgan daraxtning so'nggi yaprog'ini ham uchirib ketdi.*
C) *Atmosfera yo'qligi sababli Oy yuzasi yo haddan ziyod issiq, yo nihoyatda sovuq bo'ladi.*
D) *Tovushlarning shirin-achchig'i, Bordir hatto yumshoq-qattig'i.*
5. Yopiq bo'g'inlardan biri faqat jarangli sirg'aluvchi til undoshlari va unidan tarkib topgan so'zni aniqlang.
A) *insonparvar* B) *suhbat* C) *qing'ir* D) *shamshir*
6. Alam qiladigan joyi shundaki, mening qavmlarim - tarjimonlar hamtilni bulg'ash uchun tobora xuruj qilmoqdalar.
Ushbu gap haqidagi noto'g'ri fikrlarni toping.
1) kesim ergash gapli qo'shma gap; 2) ajratilgan to'ldiruvchi ishtirok etgan ergashgan qo'shma gap; 3) ergash gap tarkibida ajratilgan bo'lak; 4) bosh gapi kesimi ot kesim bo'lgan to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap.
A) 1, 2 B) 1, 2, 3 C) 2, 4 D) 1, 3, 4
7. Agar sen go'daklik zamoningda onang sen bilan qanday his kechirganini, o'zining esa osmon bilan yerning farqini bilmaydigan bir chaqaloq bo'lganini bilishni istasang, atrofingdagi onalarga qara, ularning qo'llaridagi chaqaloqlarga nazar sol, shunda sen o'z go'dakligingni yorqin tasavvur qilasan va o'zing bundan xulosa chiqarib olasan.
Ushbu murakkab qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning kesimlari haqida berilgan qaysi hukm to'g'ri emas?
A) *barcha kesimlar so'z bilan ifodalangan*
B) *shart, buyruq-istak, xabar mayli fe'llari bilan ifodalangan*
C) *kesimlari musatqil va nomustaqil kesimlarga mansub*
D) *kesimlar har xil shaxs-son ma'nosidagi fe'llar bilan ifodalangan*
8. Berilgan paronim juftiga ega omonim so'zlarni aniqlang.
1) **shoh**; 2) **asr**; 3) **soch**; 4) **rux**; 5) **sanat**; 6) **tus**
A) 3, 4, 5, 6 B) 2, 4 C) 1, 2, 4 D) 1, 2, 4, 5
9. Qizlarning ichida shu egma qosh yoqadi.
Ajratib ko'rsatilgan so'zlarda qaysi usulda ma'no ko'chishi kuzatiladi?
A) *sinekdoxa* B) *metonimiya* C) *metafora* D) *vazifadoshlik*
10. Quyidagi berilgan nechta so'z har xil so'z turkumi doirasida shakldosh bo'la boshladi?
o'ch, band, bo'sh, maqom
A) 2ta B) 4ta C) 3ta D) 2ta
11. Qaysi gapda narsaning o'lchovini ifodalash uchun qo'llangan hisob so'z alohida olinganda predmetlik ma'nosini bildirsa olmaydi?
A) *Shu payt bir bog' o'tinni yelkasiga ortgancha eshikdan akam kirib keldi.*
B) *U darrov hushini yig'ib oldi, qo'lini yuvdi-da, bir kosa suv solingan idishni ko'tarib oshxonadan chiqdi.*
C) *Burunga kuniga 3-4 tomchi dori tomizib turish kerak.*
D) *Yuz gramm unni idishga solib, ustidan uchta tuxum chaqib soling va ikkovini yaxshilab aralashiring*
12. Taqlid so'z eganing aniqlovchisi vazifasini bajargan gapni aniqlang.
A) *Jigarim otashga tegardi jiz-jiz, Sochlarim oqargan shunda, ehtimol.*
B) *Yeti qaroqchi yulduzi tik kelganda qo'ng'ir-qo'ngir ovozdan uyg'onib ketdim.*
C) *Qirlarning g'ir-g'ir shamoli, o'pkalarga moydek tuyilgan totli havosi hammamizning ruhimizni ko'tarib yubordi.*
D) *Chiqib ketayotganida chol-kampir pichir-pichir qilayotganini sezdim.*
13. Qaysi gapda kelishik qo'shimchasini ko'makchi bilan almashtirish mumkin?
A) *Mehnatsevarligidan el ichida obro' qozongan edi.*
B) *Hovli suv quygandek jimjit.*
C) *Matni kitobdan daftarga ko'chirdim.*
D) *Birdan chehrasidagi quvonch o'rnini hayrat egalladi.*
14. Keltirilgan parchada ravish turkumiga oid yasama so'z necha o'rinda qodlangan?
U bugun juda charchagan edi, kechki taomda ham arang o'tirdi, yostiqqa boshini qo'ydi-yu, darhol uyquga ketdi. Bir mahal endigina orom olib uxlayotganda kimdir hovli eshigini ochib ohista kirib keldi, uning bu ovozdan so'ng uyqusi butunlay qochdi, boyagi uyqu istagi uni bir zumda tark etdi.
A) 2 B) 3 C) 4 D) 5
15. Berilgan gap turini aniqlang.
Inson hayoti shaxmat taxtasidagi piyodaning yurishiga o'xshaydi: goh qora katakdan, goh oq katakdan o'tadi.
A) *uyushiq bo'lakli sodda gap*
B) *ayiruv munosabatli bog'langan qo'shma gap*
C) *aralash murakkab qo'shma gap*
D) *bog'lovchisiz qo'shma gap*
16. Qaysi gapda paronim bilan bog'liq xatolikka yo'l qo'yilgan?
A) *Unga ekishga yaroqli yerlarning hisobini olish topshirilgan edi.*
B) *Hirotning a'yonlari yangi podshoga yaxshi ko'rinish ilinjida edilard.*
C) *Shoir she'rlarida so'zni tambur torlaridek jaranglata olgan.*
D) *Dushman turli hiyla bilan jangchilarning tinkasini quritmoqchi edi.*
17. Odam uchta narsaning qadrini doim kechikib biladi: yoshlik, sog'lik, tinchlik.
Ushbu gapdagi ikki nuqtaning qo'yilish sababi to'g'ri izohlangan javobni aniqlang.
A) *gap bo'laklari bilan aloqaga kirishmaydigan bo'laklarni ajratish uchun*
B) *umumlashiruvchi bo'lak uyushiq bo'laklardan oldin kelgani uchun*
C) *izoh munosabati bog'lovchisiz qo'shma gap bo'lgani uchun*
D) *ajratilgan bo'lak qatnashgani uchun*
18. Berilgan she'riy parchada ot turkumiga mansub so'zlar qanday usul(lar) bilan hokim so'zga tobelangan?
Jajji go'dak, sen tug'ilding, sen uchun,
Kim belanchak yasab turur shu damda,
Kimdir senga uchqur tulpor egarlar,
Kimdir senga hassa yo'nar shu damda.
A) *bitishuv, boshqaruv* B) *boshqaruv* C) *moslashuv, bitishuv* D) *moslashuv*
19. Sabab holi sifatdosh bilan ifodalangan egasi ma'lum gapni toping.
A) *Boshqa hech narsasi yo'qligi uchun bitta-yu bitta ho'kizini berib yuboribdi.*
B) *Shamol tinavermagach, tog'ga chiqishni qoldirdi.*
C) *Uyalganidan bir zumda qizarib-bo'zarib ketdi va qadamini tezlatdi.*
D) *Tuman quyugligidan yo'l zo'rg'a ko'rinar edi.*
20. Agar bu O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixini ulug'lamoqchi bo'lsak, avvalambor, buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak.
Ushbu gapda faqat hokim qismi yasama so'zdan iborat bo'lgan so'z birikmalari sonini aniqlang.
A) 5 B) 4 C) 3 D) 2
21. Quyidagi qo'shma gapda gap bo'laklari necha o'rinda so'z birikmasini hosil qilgan?
Quyosh, oy hamda yulduzlar bitta umumiy qoidaga itoat etadi va ular bu qoidalardan qilcha ham chetlashmaydi.
A) 7 B) 5 C) 4 D) 6

22. Berilgan so'zlardan nechtasi yasama shaxs otlari sanaladi?
1) gulchi; 2) zargarlik; 3) baqqol; 4) qassoblik; 5) atamashunos; 6) o'quvchi; 7) temirchilik
A) 3tasi B) 5tasi C) 4tasi D) 6tasi
23. Quyidagi berilgan qo'shimchalardan fe'l so'z turkumi doirasida omonimligini namoyon qila oladigan qo'shimchalarni aniqlang.
1)-vchi 2)-kash 3)-qi 4)-ish 5)-ar 6)-ay
A) 2, 3, 4 B) 4, 5, 6 C) 3, 5, 6 D) 1, 2, 4, 5, 6
24. Qaysi gapda fe'lning vazifa shaklini hosil qiluvchi qo'shimcha bilan omonim bo'la oladigan nisbat qo'shimchasini olgan fe'l qatnashgan?
A) *Qishloqdan chiqarkan, boy tog'asidan albatta xizmat so'rashni onasi uqtirgan edi.*
B) *Tuproq uyimdan sakrab o'tgan Alijon qaytarma etagiga yopishgan changni jahl bilan qoqdi.*
C) *Nurga to'ldi dara, to'ldi soy, Nur yog'ildi qorong'i jarga.*
D) *Menga shuncha yaxshilik qildingiz, necha bor meni yomon yo'ldan qaytardingiz*
25. Quyida berilganlardan qaysilari she'riyatning "raqs qo'shig'i" ma'nosini anglatuvchi janrida yozilgan?
1) "Mardlik afsonasi" (Shuhrat);
2) "Mardlik cho'qqisi" (A. Muxtor);
3) "Uch qiz afsonasi" (Shuhrat);
4) "Qullar kemasi" (H. Hayne);
5) "Samarqand afsonasi" (T. To'la)
A) 3, 4, 5 B) 2, 3, 4 C) 1, 3, 5 D) 1, 3, 4
26. "Sohibqiron" dramasi o'zini "Men shahri Keshdan. Otam sizga sarboz bo'lgan. Dehli jangida shahid ketgan..." deb tanishtirgan qahramonning ismi nima edi?
A) *Qosimbek* B) *Kayxisrav* C) *Aloviddin* D) *Barlos Bahodir*
27. Alisher Navoiy "Xamsa" sining qaysi adabiy qahramoni "g'ayratidin tutmam otin" deya yorini hatto tilida aytishga rashk qilishini aytadi?
A) *Farhod* B) *Suhayl* C) *Majnun* D) *Bahrom*
28. Quyidagi bayt qaysi ijodkorning tarji'bandida takrorlangan?
Dahr bir vayrona edurkim, zzarob obod erur,
Chiqsa andin har kishi - g'am bandida ozod erur.
A) *Alisher Navoiy* B) *Ogahiy* C) *Nodira* D) *Uvaysiy*
29. Ilohi kelmasin senga mahosil,
Qaytayin, bo'lmadi maqsudim hosil,
Yurarga quvvating, holing qolmasa
Kel, orqamga, ko'tarayin bir fasl.
Bu parchada qaysi asar qahramoni kimga murojaat qilgan?
A) *"Kuntug'mish" dostonida Kuntug'mish Xolbekaga*
B) *"Alpomish" dostonida Barchin Hakimbekka*
C) *"Ravshan" dostonida Zulxumor Ravshanga*
D) *"Rustamxon" dostonida Rustam Oftoboyimga*
30. Qaysi javobda keltirilgan ma'lumot Mirmuhsin hayoti va ijodiga mansub emas?
A) *Romanlaridan birida o'zbek adabiyotida birinchi bo'lib, chet eldagi o'zbeklar hayotini aks ettirishga urindi.*
B) *Toshkent shahrining Qo'rg'ontepa mahallasida kulol oilasida tug'ilgan.*
C) *Ijodkor bir qator dostonlar yaratgan.*
D) *"Tungi chaqmoqlar" qissasi xalqimiz o'tmishini aks ettirishga bag'ishlagan.*
31. "Gul yaprog'i asalga tushgandek, uni beshikka bog'ladilar. Uni baxt bilan saodat doya singari odat bo'yicha tarbiyaladilar; bir laha ham undan bexabar qolmang, ko'z qorachig'idek asradilar. Uni ko'z yoshini saqlagandek ko'zda asradilar".
Ushbu parchada qaysi adabiy qahramon go'dakligi haqidagi she'riy misralarning nasriy bayoni berilgan?
A) *Farhod* B) *Qays* C) *Layli* D) *Shirin*
32. Navoiyning qaysi g'azali ichki qofiyaga ega?
A) *"Jong'a chun dermen..." deb boshlanuvchi g'azali*
B) *"Ko'rgali husnungni zor-u ..." deb boshlanuvchi g'azali*
C) *"Ko'nglung istar yorlar birla..." deb boshlanuvchi g'azali*
D) *"Qoshi yosinmu deyin..." deb boshlanuvchi g'azali*
33. Ko'nglum g'am ila to'q ayla, yo Rab!
Ishq ichra meni yo'q ayla, yo Rab!
Ushbu parcha Alisher Navoiy ijodidagi qaysi adabiy qahramon tilidan aytilgan?
A) *Shirin* B) *Majnun* C) *Farhod* D) *Layli*
34. Xotimasida "navro'z oyi" da tugatilganligi zikr etilgan asarni aniqlang.
A) *"Latofatnoma"* B) *"Qutadg'u bilig"* C) *"Muhabbatnoma"* D) *"Suhayl va Guldursun"*
35. "Alar qo'ydi ikkisi yo'l sari pay,
Boqib turg'onda yo'lg'a zar sochib oy.
Birikib ketti oshiqlar uzoqqa,
Tinnmay yo'l uza qo'yg'an tuzoqqa".
Ushbu parchada tasvirlangan oshiqlar kim edi?
A) *Kuntug'mish va Xolbeka* B) *Farhod va Shirin* C) *Layli va Majnun* D) *Suhayl va Guldursun*
36. Quyidagi baytda qo'llangan badiiy san'atni toping.
Chamanda xizmat uchun bir ayoqda tik turib shamshod,
Tutar yo'lingda nargisdin shamshon lola.
A) *tanosub, tazod, husni ta'lim*
B) *tanosub, tashxis, husni ta'lim*
C) *tashxis, tashbeh, isroli masal*
D) *talmeh, tazod, iyhom*

BIOLOGIYA

37. Quyularda quloq suprasining uzunligi 2 juft polimer genlarga bog'liq. Agar quloq suprasining uzunligi 24 sm li $A_1A_1A_2A_2$ genotipli urg'ochi quyon va quloq suprasining uzunligi 16 sm li $a_1a_1A_2a_2$ genotipli erkak quyon bilan chatishtirilsa, avlodning necha foizini quloq suprasining uzunligi 20 sm li quyonlar tashkil qiladi?
A) 25 B) 75 C) 50 D) 12,5
38. Tishlarning qoramtir rangi ikkita dominant gen ta'sirida rivojlanadi. Bu genlarning biri autosomada, ikkinchisi X xromosomada joylashgan. Bu belgining autosomada joylashgan turiga ega bo'lgan erkak va jinsga birikkan turiga ega bo'lgan ayol oilasida tishlari normal bo'lgan qiz va o'g'il tug'ildi. Ushbu oilada tug'iladigan farzandlarning necha foizida belgining faqat X xromosoma orqali irsiylanadigan turi mavjud bo'ladi?
A) 12,5 B) 50 C) 25 D) 75
39. Itning koker zoti junining qora rangi dominant noallel A va B genlarga bog'liq. Faqat A genining dominant holatda bo'lishi junning malla, B genining dominant holatda bo'lishi junning jigarrang, dominant genlarning uchramasligi junning oq rangda bo'lishini ta'minlasa, digeterozigota genotipli organizmlar o'zaro chatishtirilgandan olingan avlodning necha foizini fenotip va genotip jihatdan ota-onadan o'xshash organizmlar tashkil qiladi?
A) 31,25 B) 37,5 C) 25 D) 75
40. Oqsilning molyar massasi 36000 ga oqsil tarkibida har bir aminokislota qoldig'ining molyar massasi 120 ga teng ekanligi ma'lum. Oqsil biosintezida i-RNK ning 25% ishtirok etmagan. Shu RNK transkripsiyalangan DNK dagi umumiy nukleotidlarining 20% i timinga to'g'ri keladi. RNK dagi ribozalar sonini aniqlang.
A) 900 B) 2400 C) 1800 D) 1200
41. Fotosintezning qorong'ulik bosqichi reaksiyalarida 18 molekula ADF hosil bo'lsa, glukoza sintezi uchun necha molekula CO_2 birkiritilgan?
A) 18 B) 12 C) 72 D) 6
42. Ma'lum bir hayvon embrioni 3 marta meridinal bo'linganda hosil bo'lgan blastomerlardagi jami xromosomalar soni 4 marta ekvatorial bo'linishidan so'ng hosil bo'lgan blastomerdagi xromosomalar sonidan 15872 taga kam bo'lsa, ushbu organizm hujayrasi mitoz bo'linishidan metafaza davridagi hujayrada nechta autosoma xromosoma bo'lishini aniqlang?
A) 16 B) 32 C) 64 D) 30
43. Qayin odimchisi mansub bo'lgan tip uchun (a) va faqat sinf uchun (b) umumiy belgilar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
1) polisaxariddan iborat tashqi skelet; 2) ikki juft qanotlar; 3) bo'g'imlardan iborat oyoqlar; 4) tullab o'sish; 5) traxeyalardan iborat nafas olish organlari; 5) qorin nerv zanjiri
A) a-1,5; b-4,6
B) a-2,4; b-3,5
C) a-4,6; b-3

- D) a-1,3; b-2
44. Hayvonlarning kelib chiqishi haqidagi to'g'ri fikrni belgilang.
A) Erkin yashovchi qadimgi yassi chuvalchanglardan ko'p tuklilar, ulardan esa kam tuklilar kelib chiqqan
B) Qadimgi ichaksiz kiprikli chuvalchanglar parazit yashashga moslanishi tufayli so'rg'ichlilar, ulardan esa tasmason chuvalchanglar kelib chiqqan
C) Qadimgi koloniya bo'lib yashovchi bir hujayrali xivchinilardan gidrasimonlar, korall polioplari va meduzalar kelib chiqqan.
D) Qadimgi ichaksiz yassi chuvalchanglardan to'garak chuvalchanglar, ulardan halqali chuvalchanglar kelib chiqqan.
45. Paleozoy (a) va mezozoy (b) eralariga xos biologik progresslarni aniqlang.
1) qushlarda to'rt kamerali yurak; 2) qirquqoqsimonlarda urug';
3) hasharotlarda qanot; 4) stegosefallarda besh barmoqli oyoqlar;
5) sutemizuvchilarda jun qoplami; 6) sudralib yuruvchilarda qalin po'choq bilan qoplangan tuxum
A) a-3,4; b-1,2 B) a-2,6; b-1,5 C) a-1,4; b-5,6 D) a-1,3; b-2,5
46. Biosfera tirik moddasining funksiyasi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
1) temir bakteriyalarining xemosintez qilishi; 2) atmosfera tarkibida kosmik chang zarralarining uchrashi; 3) hayvonlarning kislorod yutib CO₂ chiqarishi; 4) vulqonlarning otilishidan tog' jinrlarining hosil bo'lishi; 5) geterotroflarning tayyor organik modda bilan oziqlanishi; 6) ildizoyoqli sodda hayvonlarda kalsiyning to'planishi
A) 1,2,3 B) 2,4,5 C) 1,3,6 D) 4,5,6
47. Birlamchi konsument (a), ikkilamchi konsument (b) umurtqali organizmlar ko'rsatilgan javobni aniqlang.
1) taqaburun; 2) ko'l baqasi; 3) O'rta osiyo toshbaqasi; 4) qaldirg'och; 5) chuchuk suv gidrasi; 6) botqoq toshbaqasi; 7) hasva qandalasi; 8) kabarga; 9) chigirtka; 10) zubr
A) a-7,9; b-4,5
B) a-3,4; b-1,2
C) a-8,10; b-1,6
D) a-6,10; b-3,4
48. Epistaz irsiylanishda komplementar irsiylanish kabi...
1) allel bo'lmagan genlarning o'zaro ta'siri kuzatiladi; 2) digeterozigota duragaylarning avlodida 9 xil genotipik sinf hosil bo'ladi; 3) belgilarning rivojlanishi dominant genlar soniga bog'liq bo'ladi; 4) bir gen belgiga ta'sir qilsa, ikkinchisi bilvosita ta'sir qiladi
A) 2,3 B) 1,4 C) 1,2 D) 3,4
49. Bosh miyaning stvol qismida (a) va orqa miyada (b) joylashgan vegetativ nerv sistemasi markazlarining funksiyalarini aniqlang.
1) yurakning minutlik sistolik hajmini oshiradi; 2) o'pkalar ventilatsiyasini kuchaytiradi; 3) ko'z qorachig'ini kengaytiradi; 4) me'da shirasi ishlab chiqarilishini kuchaytiradi; 5) siydik pufagi muskulini bo'shashtiradi; 6) siydik pufagi muskulini qisqartiradi
A) a-4; b-1,2 B) a-1; b-3,6 C) a-2; b-4,5 D) a-5; b-2,4
50. Odam organizmidagi sistolik bosim yuzaga kelgan vaqtda...
A) yarimoysimon klapan ochiq bo'ladi; qorincha diastola holatida bo'ladi
B) yarimoysimon klapan ochiq bo'ladi; bo'lmacha diastola holatida bo'ladi
C) ikki tavaqali klapan ochiq bo'ladi; bo'lmacha sistola holatida bo'ladi
D) qorincha diastola holatida bo'ladi; simpatik nerv sistemasi ta'sir qiladi
51. Odamdagi o'mrov osti muskulining bo'yinning teri osti muskulidan farqini toping.
1) vegetativ nerv sistemasi orqali boshqariladi; 2) joylashuv ko'ra to'sh-o'mrov so'rg'ichsmon muskul bilan bir guruhga kiradi; 3) joylashuviga ko'ra diafragma muskuli bilan bir guruhga kiradi; 4) gavdaning ko'krak muskuli hisoblanadi; 5) suyakka birikadi; 6) boshning harakatini ta'minlaydi; 7) qo'lning harakatida ishtirok etadi
A) 1,4,5 B) 1,5 C) 2,6 D) 3,4,7
52. Odam organizmidagi A vitaminining yetishmasligi natijasida...
1) milklar qonaydi, tishlar to'kiladi. 2) enterit kasalligi kelib chiqadi. 3) qo'l-oyoq muskulari uvushib og'riydi. 4) nerv tolalari falajlanadi. 5) traxeyaning shilliq pardasi yallig'lanadi. 6) epiteliy to'qimasining yangilanishi buziladi.
A) 3,4 B) 4,5 C) 1,5 D) 2,6
53. Sezgi analizatorlari haqidagi noto'g'ri fikrni aniqlang.
A) Terining derma qavatida issiqni va bosimni sezuvchi retseptorlar siypalashni va og'riqni sezuvchi retseptorlarga nisbatan chuqurroq joylashgan.
- B) Gipermetropiya keksalarda ko'z gavhari do'ngligining kamayib ketishi tufayli yuzaga keladi.
C) Quloqning suyak labirinti bilan parda labirinti orasida endolimfa, parda labirinti ichida perilymfa suyuqligi bo'ladi.
D) Harakat analizatorning oliy nerv markazi bosh miya katta yarimsharlari po'stlog'ining oldingi markaziy egatida joylashgan.
54. Qoramol tasmason chuvalchangida nerv sistemasining sodda tuzilganligi, to'rtta so'rg'ichining bo'lishi hosil qilish organlarining yo'qolib ketganligi qanday evolyutsion jarayonlarni aks ettiradi?
A) biologik progress, umumiy degeneratsiya
B) umumiy degeneratsiya, biologik regress
C) idioadaptatsiya, biologik regress
D) biologik progress, aromorfoz
55. Zarar keltiruvchi hasharotlar turkumlari bilan to'g'ri juftlab ko'rsatilgan javobni belgilang.
1) hasva; 2) olma qurti; 3) kuya; 4) chigirtka; 5) bezgak paraziti; 6) so'na; 7) oq chumoli; 8) kana; 9) iskabtopar; 10) trixogramma;
a- to'g'riqanotlilar; b- qandalalar; c-tangachaqanotlilar; d-ikki qanotlilar; e-termitlar
A) b-1; d-6; e-8 B) a-4; b-1; c-3; d-9 C) a-4; c-2; d-9,10; e-7 D) a-4; b-1; d-5; e-7
56. Alligator bilan bir sinfda (a) va begemot bilan bir turkumga (b) birlashtirilgan hayvonlar to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.
A) a-gekkon, kobra, gavial; b-arxar, g'izol, zubr
B) a-And kondori, kobra, ilonbo'yin toshbaqa; b-arxar, bizon
C) a-aureliya, kabarga, yelik; b-to'ng'iz, gibbon, oqcha
D) a-kaputsin, kapcha, gatteriya guattara; b-muflon, g'izol, bizon
57. Yirtqich sutemizuvchilar tishlariga xos xususiyatlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.
a) oq ayiq; b) bo'rsiq; c) tyin; d) norka;
1) kurak tishlari yirik va o'tkir; 2) qoziq tishlari baquvvat va o'tkir; 3) kurak tishlari mayda; 4) qoshiq tishlari bo'lmaydi; 5) oziq tishlarning o'zgarishidan yirtqich tishlar hosil bo'lgan; 6) kurak tishlari hayoti davomida o'sib turadi
A) a-2,3,5; b-2,5; c-1,6; d-3,5
B) a-2,5; b-1,2,5; d-1,4,6
C) a-2,3,5; b-2,5; d-2,3
D) a-2,3,5; b-2,3,5; c-1,4,6
58. Fototrof organizmlarda parazitlik qiluvchi, hujayra qobig'i xitin moddadan iborat organizmlarni belgilang.
1) gommoz qo'zg'atuvchisi; 2) vertitsillium; 3) zang zamburug'i; 4) nematoda; 5) qorakuya; 6) nozema; 7) tripanosoma
A) 4,6 B) 1,6 C) 3,7 D) 2,5
59. Geterotrof oziqlanish xususiyatiga ega prokariot (a) va eukariot (b) organizmlarni aniqlang.
1) ossillatoriya; 2) temir bakteriyalari; 3) pichan bakteriyasi; 4) shumg'iya; 5) raffleziya; 6) kalina; 7) midiya; 8) giatsint; 9) parpi
A) a-1,2; b-5,6,7
B) a-2,3; b-6,7,8
C) a-2,3; b-4,5,6
D) a-3; b-6,8,9
60. Nukleoproteinlari yadro va sitoplazmada (a), faqat sitoplazmada (b) joylashgan organizmlarni juftlab ko'rsating.
1) perpes; 2) exinokokk; 3) batsilla; 4) achitqi; 5) ossillatoriya; 6) xlorella; 7) xrokokk; 8) batsidiya; 9) bakteriofag; 10) OITV
A) a-1,9,7; b-4,6
B) a-4,6,8; b-3,5
C) a-3,7; b-2,6
D) a-3,10; b-4,6
61. Shimpanze somatik hujayrasida sodir bo'ladigan mitoz jarayoni haqida to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.
1) profazada ikki xromatidali xromosomalar soni 48 ta;
2) anafazada xromosomalar soni 96 ta;
3) metafazada ikki xromatidali autosoma xromosomalar soni 46 ta;
4) anafazada ikki xromatidali xromosomalar soni 96 ta; 5) metafazada ikki xromatidali xromosomalar soni 48 ta; 6) interfaza G₁ davrida ikki xromatidali xromosomalar soni 48 ta
A) 1,4 B) 3,5 C) 4,5 D) 2,6

62. Seleksiyada yakka (a) va yalpi (b) tanlash usullarining qo'llanilishi bilan bog'liq ma'lumotlar to'g'ri juftlangan javobni belgilang.
1) chetdan changlanuvchi o'simliklarga nisbatan qo'llaniladi; 2) toza liniyalari olinadi; 3) genetik nuqtai nazardan bir xil bo'lmagan navlar olinadi; 4) genetik nuqtai nazardan bir xil organizmlar guruhi olinadi; 5) avlodlar soni kam bo'lganligi sababli chorvachilikda qo'llaniladi
A) a-3; b-1,2
B) a-1,4; b-3,5
C) a-2,4; b-3
D) a-1,3; b-4,5
63. HaeIII restriktazasi uchun xos belgilarni ko'rsating.
A) to'rtta nukleotid juftligini taniydi, tarkibi bo'yicha transpazonga o'xshaydi
B) peptid bog' mavjud, to'rtta nukleotid juftligini taniydi
C) vodorod bog' mavjud, tarkibi transpazon bilan o'xshash
D) DNKni yopishqoq uchlar hosil qilib kesadi, peptid bog'larni uzadi
64. Zubtutum (a) va nastarin (b) ning to'pguliga xos belgilarni aniqlang.
A) a-asosiy gulpoyasi shoxlangan; b-atrofi o'rama bargchalar bilan o'ralgan
B) a-asosiy gulpoyasi shoxlanmagan; b-asosiy gulpoyasi shoxlangan
C) a-shoxlanmagan gulpoyaga gullar bandsiz birikkan; b-shoxlangan gulpoyaga to'g'ri gullar yig'ilgan
D) a-umumiy gulpoya qisqa, gullar bir tekislikda joylashgan; b-uzun gulpoyada gullar ketma-ket joylashgan
65. Bodiyon (a) va bo'tako'z (b) ning to'pguliga xos belgilarni aniqlang.
A) a-umumiy gulpoya qisqa, gullar bir tekislikda joylashgan; b-uzun gulpoyada gullar ketma-ket joylashgan
B) a-asosiy gulpoyasi shoxlangan; b-atrofi o'rama bargchalar bilan o'ralgan
C) a-asosiy gulpoyasi shoxlanmagan; b-asosiy gulpoyasi shoxlangan
D) a-atrofi o'rama bargchalar bilan o'ralgan; b-gullar gulpoyaga uzun bandlar bilan birikadi
66. Quyidagi meva turlari qaysi o'simlik navlariga xos ekanligi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
a) danakli meva; b) rezavor meva; c) don meva; d) qovoq meva; e) ko'sak meva;
1) qozidastor; 2) Namangan; 3) zarg'aldoq; 4) gultish;
5) Samarqand-3; 6) bargi; 7) buvaki; 8) sanzor; 9) yulduz
A) a-3; b-7; c-8; d-6; e-5
B) a-3; b-1,4,7; c-8; d-2,9; e-5
C) a-1; b-4,5; c-8; d-7; e-2
D) a-3; c-1,6; c-8; d-7; e-4
67. Lolasionlar (1), archadoshlar (2), ituzum (3) va qoqio'tdoshlar (4) sistematik birliklarga mansub o'simliklarni aniqlang.
A) 1-qo'ng'irbosh; 2-sharq sauri; 3-kartoshka; 4-bo'znoch
B) 1-oq shuvoq; 2-sharq sauri; 3-baqlajon; 4-bo'yadaron
C) 1-piyozli arpa; 2-sekvoyadendron; 3-baliqko'z; 4-kakra
D) 1-boychechak; 2-qarag'ay; 3-qizil ituzum; 4-qoqio't
68. Spirogira (I) va ossillatoriya (II) uchun xos bo'lgan belgilarni toping.
1) hujayra markazi hujayra bo'linishida ishtirok etadi; 2) tarkibida xlorofill pigmenti mavjud; 3) erkin azotni o'zlashtiradi; 4) irsiy material yadroda joylashgan; 5) donador endoplazmatik to'rdada oqsillar sintezlanadi; 6) mitoxondriyada kislorodli oksidlanish sodir bo'lad
A) I-3,6; II-4,5 B) I-1,4; II-5,6 C) I-3,5; II-2,4 D) I-3,6; II-2,4
69. Itsigak (a) va isirg'ao't (b) ga xos bo'lgan belgilarni ajrating.
1) gultojibarglarning 2 tasi qo'shilgan, 3 tasi erkin; 2) barglari oddiy yonbargsiz; 3) avtoxoz o'simlik; 4) gulqo'rg'oni oddiy, tojbarsimon; 5) barglari yonbargchali; 6) sho'radoshlar oilasiga mansub; 7) dukkakkoshlar oilasiga mansub; 8) gulqo'rg'oni oddiy kosachasimon
A) a-2, 4, 6; b-1, 3, 7
B) a-1, 3, 7; b-2, 4, 6
C) a-1, 3, 5; b-2, 6, 8
D) a-2, 6, 8; b-1, 5, 7
70. Organizmlarning qaysi sistemati guruhlar aromorfozlar natijasida paydo bo'lgan?
1) to'garak chuvalchanglar; 2) qisqichbaqasimonlar; 3) ayiqsimonlar; 4) o'rgimchaklar; 5) qo'lqanotlilar; 6) hasva qandalasi; 7) o'rgimchaksimonlar; 8) terili toshbaqa
A) 1,2,7 B) 1,3,4 C) 3,5,8 D) 3,6,7
71. Bitta biogeografik viloyatda tarqalgan hayvonlar juftligi to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.
1) alligator va iguana; 2) tasqara va kolibri; 3) kapachi va vandu; 4) skuns va shinshila; 5) orangutan va shinshila; 6) los va bizon
A) 3,4,5 B) 1,2,5 C) 1,2,6 D) 3,5,6
72. Paleoarktik biogeografik viloyatiga mansub tuyoqli sutemizuvchi hayvonlarni aniqlang.
1) zubr; 2) mufton; 3) sayg'oq; 4) koala; 5) maral; 6) kanna; 7) kabarga; 8) tog'kiyigi; 9) muskusli qo'y; 10) qunduz
A) 1,4,7 B) 3,5,8 C) 2,6,9 D) 2,5,10

KIMYO

73. Qaysi polimer zvenosi aromatik halqa saqlaydi?
A) nitron B) lavsan C) neylon D) kapron
74. Buten -3-kislota molekulasida tarkibidagi ikkinchi uglerod atomining oksidlanish darajasini toping.
A) +1 B) -2 C) -3 D) +3
75. $H_2SO_4 \rightarrow S \rightarrow H_2S$ qatorda quyidagi qaysi xossa ortadi?
A) dissotsiyalanish darajasi
B) qaytaruvchilik
C) oksidlovchilik
D) suvda eruvchanligi
76. DNK qo'sh spirali tarkibidagi nukleotidlarda 3700 ta azot atomi bor bo'lsa, nukleotidlar sonini toping. (nukleotidlarning 20% ini guanin tashkil etadi)
A) 600 B) 1000 C) 1200 D) 800
77. Fosfor mo'l miqdordagi kislorodda yondirilganda olingan oksid 200 g 9,8% li fosfat kislota eritmasida eritilganda fosfat kislota miqdori 3 marta ortdi. Olingan eritmaga o'yuvchi natriy eritmasidan 540 g qo'shilganda hosil bo'lgan tuz massasini (g) aniqlang. Ishqor eritmasida suvning massasi NaOH massasidan 6,5 marta katta.
A) 72 B) 98,4 C) 14,2 D) 85,2
78. 1,75 mol glyukozaning glitserinli bijg'ishi natijasida ($\eta=0,8$) hosil bo'lgan CO_2 ning atomlar sonini aniqlang.
A) $1,4 \cdot N_A$
B) $4,2 \cdot N_A$
C) $5,25 \cdot N_A$
D) $2 \cdot N_A$
79. 0,8 mol noma'lum bir asosli to'yingan karbon kislota eritmasiga Na metali qo'shilganda 17,92 litr (n.sh.) gaz ajralib chiqdi. Reaksiya sodir bo'lgan idishga yuqori bosim va temperatura ostida yetarlicha is gazi yuttirilishi natijasida hosil bo'lgan mahsulot birinchi reaksiyadan ajralgan organik mahsulot bilan 34:41 massa nisbatda ekanligi aniqlandi. Noma'lum kislolaning 1 ta molekulasida tarkibidagi sp^3 -gibridlangan orbitalar sonini aniqlang.
A) 4 B) 12 C) 16 D) 8
80. Noma'lum alkin Kucherov reaksiyasi asosida gidratlanganda olingan keton tarkibida sp^3 -s qoplanishlar soni sp^2 -gibridlangan orbitalar sonidan 5/3 marta ko'p bo'lsa, alkinni toping.
A) geksin B) propin C) pentin D) butin
81. Quyidagi qaysi modda elektrolit hisoblanmaydi?
A) sirka kislota
B) asetaldegid
C) natriy sulfat
D) ishqor
82. Ksantoprotein reaksiyasi asosida bir mol tirozinga konsentrlangan nitrat kislota ta'sir ettirilganda necha gramm sariq rangli dinitrobirikma hosil bo'ladi? (Reaksiya unumi 60%)
A) 271 B) 451,7 C) 162,6 D) 196,4
83. O'zaro izomer bo'lgan ikkita aromatik uglevodorod kaliy permanganatning kislotali eritmasi bilan oksidlanganda 1,4 mol CO_2 gazi, 0,2 mol benzoy kislota va 0,4 mol tereftal kislota hosil bo'ldi. Benzoy kislotali hosil qilgan aromatik uglevodorod massasini (g) aniqlang.
A) 38 B) 45 C) 26,8 D) 53,6
84. Elektrolitning dissotsiyalanish konstantasi qiymatining o'zgarishi nima(lar)ga bog'liq?

- 1) elektrolit tabiatiga; 2) erituvchi tabiatiga; 3) konsentratsiyaga; 4) haroratga
A) faqat 4 B) 1,2,3,4 C) 1,2,3 D) 1,2,4
85. NH_4^+ va CH_4 uchun umumiy bo'lgan xususiyat(lar)ni toping.
1) donor-akseptor bog'ining mavjudligi; 2) markaziy atomning gibridlanish turi; 3) markaziy atomning valentligi; 4) markaziy atomning oksidlanish darajasi
A) 2,3,4 B) 1,4 C) 2,3 D) 1
86. CO va CO_2 gazlar aralashmasining 16,8 litri (n.sh)da $14,5 \cdot N_A$ dona elektron bo'lsa, aralashmaning massasini (g) toping.
A) 18 B) 36 C) 27 D) 29
87. Ammiak sintez qilish jarayonida reaktordagi bosim 25% ga kamaydi. Boshlang'ich aralashmadagi azot bilan vodorod miqdori stexiometrik nisbatda bo'lsa, reaksiyadan keyin hosil bo'lgan gazlar aralashmasining hajmiy tarkibini aniqlang.
A) 1/9; 5/9; 1/3
B) 3/10; 3/10; 2/5
C) 1/6; 1/2; 1/3
D) 1/4; 1/4; 1/2
88. Bosh va orbital kvant sonlari yig'indisi oltiga teng bo'lgan ($n+l=6$) necha xil holat mavjud?
A) 4 B) 3 C) 5 D) 2
89. 0,06 mol $\text{CuSO}_4 \cdot 3\text{H}_2\text{O}$ va $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$ aralashmasining to'liq degidratlanishidan 0,2 mol suv hosil bo'ldi. Kristallogidratlarning mol nisbatini toping.
A) 2:4 B) 4:5 C) 3:1 D) 5:1
90. Bariy digidrofosfat molekulasining tuzilish formulasidagi σ va π -bog'lar sonini aniqlang.
A) 16 va 4 B) 14 va 2 C) 14 va 4 D) 21 va 3
91. Temperatura koeffitsiyentlari 2 va 4 bo'lgan ikkita reaksiyaning boshlang'ich temperaturalari tegishli ravishda 30°C va 20°C ga teng. Qanday temperaturada ($^\circ\text{C}$) ikkinchi reaksiyaning tezligi birinчисinikidan 8 marta katta bo'ladi?
A) 50 B) 40 C) 60 D) 30
92. X% li eritma massasining 1/5 qismi bug'latildi. Bunda erituvchining massasi 1/4 qismga kamaydi. Eritmaning massa ulushi 5/4 marta ortsa, X ni aniqlang.
A) 15 B) 25 C) 30 D) 20
93. Molyar konsentratsiyalari nisbati 1:2 bo'lgan sulfat va xlorid kislotasi eritmalarni to'la neytrallashtirish uchun 200 g 12% li NaOH eritmasi sarflandi. Boshlang'ich eritma BaCl_2 bilan ishlov berilganda cho'kmaga tushadigan tuz massasini (g) aniqlang.
A) 46,6 B) 69,9 C) 34,95 D) 23,3
94. X g 40% li CaBr_2 eritmasini to'yintirish uchun 20 g CaBr_2 tuzidan qo'shish kerak. Tuzning ushbu haroratda eruvchanlik koeffitsiyenti 80 ga teng. Hosil bo'lgan to'yingan eritmaning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 14,66 B) 33,3 C) 24,44 D) 44,4
95. Eritmadagi H^+ ionlari OH^- ionlaridan 10^{10} marta ko'p bo'lsa, eritmaning pOH qiymatini toping.
A) 10 B) 12 C) 5 D) 4
96. Ishqor suvli eritmada quyidagi qaysi moddalar bilan ta'sirlashmaydi?
A) bariy nitrat, alyuminiy xlorid
B) bariy sulfat, natriy xlorid
C) xrom(III) gidroksid, xrom trioksid
D) diyod pentaoksid, vodorod sulfid
97. Sxemadagi barcha noma'lum moddalar tarkibida azot borligi ma'lum bo'lsa, A, C va F moddalarni aniqlang.
$$\text{H}_2 + \text{N}_2 \xrightarrow{t^0, P} \text{A} \xrightarrow{0_2, kat} \text{B} \xrightarrow{0_2} \text{C} \xrightarrow{0_2 + \text{H}_2\text{O}} \text{D} \xrightarrow{A} \text{E} \xrightarrow{t^0} \text{F}$$

1) $\text{H}_2 + \text{N}_2$; 2) NO_2 ; 3) NO ; 4) HNO_2 ; 5) HNO_3 ; 6) NH_4NO_3 ; 7) N_2O 8) N_2
A) 4,6 B) 1,8 C) 1,2,7 D) 5,6
98. 0,28% li KOH ning 0,2 kg eritmasi 5A tok bilan 26,8 soat davomida elektroliz qilindi. Eritmaning pH ni toping. ($\rho=1,55$ g/ml)
- A) 12 B) 13 C) 11 D) 4
99. 46/42 g azot oksidi tarkibida 2/6 g azot bor. Shu oksidning ekvivalentini aniqlang.
A) 54/5 B) 38/3 C) 23/2 D) 15
100. CaCO_3 va Ca(OH)_2 dan iborat aralashma doimiy massaga qadar qizdirilganda keyin qoldiq massasi dastlabki aralashma massasining 60% ini tashkil qildi. Boshlang'ich aralashmadagi moddalarning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 79,7; 20,3
B) 74,6; 25,4
C) 31,8; 68,2
D) 45,5; 54,5
101. 0,5 mol litiy va kadmiydan iborat aralashma tarkibidagi litiyning mol ulushi kadmiyning massa ulushiga teng bo'lsa, litiyning miqdorini (mol) hisoblang.
A) 0,1 B) 0,2 C) 0,3 D) 0,4
102. MeSO_4 ning 100 g 10% li to'yingan eritmasiga shu tuzdan 6,9 g qo'shildi va qizdirildi. So'ngra eritma boshlang'ich haroratga qadar sovutildi. Natijada 13,9 g $\text{MeSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$ cho'kmaga tushdi. Kristallogidratdan kristalizatsion suv to'liq chiqarilsa necha gramm MeSO_4 qoladi?
A) 15,2 B) 3,6 C) 18 D) 7,6
103. $x\text{MgCO}_3 = y\text{MgCO}_3 + z\text{MgO} + \text{zCO}_2$ ifoda qanday ma'noni anglatadi?
A) reaksiyaning mahsulot unumi 100% dan kichikligi
B) tuzning namlik darajasi yuqori ekanligi
C) MgCO_3 tarkibida qo'shimchalar borligini
D) reaksiyaning qaytarligini
104. Hajmiy nisbatlari mos ravishda 1:3 bo'lgan 8,96 litr (n.sh) CO_2 va CH_4 gazlar aralashmasiga gazlarning atomlar soni teng bo'lguncha CO_2 qo'shildi. Hosil bo'lgan gazlar aralashmasidagi CO_2 ning hajmiy ulushini toping.
A) 3/8 B) 3/4 C) 5/8 D) 1/4
105. 10,96 g Ca_3N_2 va CaH_2 dan iborat aralashma teng ikki qismga ajratildi. Aralashmaning 1-qismiga yetarli miqdorda suv ta'sir ettirilganda 0,16 mol gazlar ajraldi. 2- qismiga mo'l miqdorda xlorid kislotasi ta'sir ettirilganda hosil bo'ladigan CaCl_2 ning miqdorini (mol) hisoblang.
A) 0,12 B) 0,04 C) 0,02 D) 0,06
106. Quyidagi anion bo'yicha gidrolizga uchraydigan tuzlarni ajrating.
1) $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$; 2) K_2CO_3 ; 3) $\text{CH}_3\text{COONH}_4$; 4) NaNO_2 ; 5) $\text{Cu}(\text{NO}_3)_2$; 6) $(\text{CH}_3\text{COO})_2\text{Ca}$
A) 2,4,6 B) 1,4,5 C) 1,3,4 D) 2,6
107. Molekulyar massasi (m.a.b) 4 ta azot atomi massasiga teng alkenni aniqlang.
A) buten B) etilen C) penten D) propen
108. Etan va butan aralashmasi yondirilganda hosil bo'lgan karbonat angidrid miqdori suvning miqdoridan 0,6 molga kam, sarfangan kislorod miqdori esa hosil bo'lgan karbonat angidrid miqdoridan 1,3 molga ko'p bo'lsa, boshlang'ich aralashmadagi butanning miqdorini (mol) aniqlang.
A) 0,4 B) 0,3 C) 0,5 D) 0,2